

O'zbekiston va Vengriya yetakchilari amaliy hamkorlikni kengaytirish muhimligini qayd etdilar



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Budapesht shahriga kelgach, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbán bilan uchrashuv o'tkazdi.

Bosh vazir davlatimiz rahbariga Vengriyaning milliy bayrami – avliyo Ishtvan kuniga bag'ishlangan tadbirlarda hamda shu kunlarda Vengriya poytaxtida o'tayotgan yengil atletika bo'yicha jahon chempionatining erkaklar o'rtasidagi yugurish musobaqalari finalida shaxsan ishtirok etayotgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston yetakchisi, o'z navbatida, Vengriya Hukumati va do'st xalqini milliy ayyom bilan dildan qutladi. Budapeshtda o'tkazilayotgan jahon birinchiligi ushbu mamlakat sport sohasida boy an'analarga egaligi va keyingi yillarda bu borada yuksak muvaffaqiyatlarga erishayotganining dalolati ekanini alohida ta'kidladi.

O'zbekiston bilan Vengriya o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Amaliy hamkorlik barcha yo'nalishlarda izchil rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Oliy darajadagi kelishuvlar samarali amalga oshirilmoqda, parlamentlar, hukumatlar, idoralar va hududiy ma'muriyatlar o'rtasida sarmahsul aloqalar yo'lga qo'yilgan.

O'zaro savdo hajmi ortib bormoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yetakchi korxonalar kooperatsiyasi kuchaymoqda.

Vengriyaning OTP banki O'zbekiston bank-moliya bozoriga kirib kelgani strategik ahamiyatga ega ekani hamda Yevropa biznesi uchun muhim ishora bo'lgani e'tirof etildi.

Bundan tashqari, Vengriyaning Bonafarm, Gedeon Richter, Meditop, Wizz Air kabi yirik kompaniyalari O'zbekiston bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik loyihalarida faol qatnashmoqda.

Madaniy-gumanitar sohadagi qo'shma dasturlarni yanada ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Joriy yil 20-avgust kundan boshlab Toshkent va Budapesht o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar yo'lga qo'yilishi ishbiarmonlik aloqalarini faollashtirish va sayyohlar oqimini ko'paytirishga xizmat qiladigan muhim voqea bo'lishi ta'kidlandi.

Mintaqaviy, shu jumladan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi kun tartibi yuzasidan batafsil fikr almashildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida yaqin va konstruktiv hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.



Manba